

INTERNET TARMOG‘LARINI O‘SMIRLAR TARBIYASIGA TA’SIRI.

*Nasriddinova Guluzro Baxromjonovna
Andijon viloyati Izboskan tumani
30-umumiy o‘rta ta’lim maktabi psixologi*

Annotasiya: maqolada o‘smirlik davrining psixologik jihatdan rivojlanish xususiyatlariga internet tarmoqlarini ta’siri, o‘smir shaxsining shakllanib, kamolotga erishish yo‘llari va unga ta’sir etadigan biologik va ijtimoiy omillarning ta’siri masalalari, olimlar tomonidan o‘smirlardagi o‘zgarishlarni sabablari haqidagi fikrlari berilgan, o‘smirlar bilan ishlash bo‘yicha tavsiyalar mavjud.

Kalit so‘zlar: axborot madaniyati, internet, o‘smirlik, oilaviy munosabatlar, onlayn platformalar, ta’lim, tarbiya.

Аннотация: в статье рассматривается влияние сетей Интернет на психологическое развитие подросткового возраста, пути формирования и взросления личности подростка, а также влияние биологических и социальных факторов, влияющих на него, приводятся мнения о причинах изменений. , есть рекомендации по работе с подростками.

Ключевые слова: информационная культура, интернет, подростковый возраст, семейные отношения, онлайн-платформы, образование, воспитание.

Abstract: the article discusses the influence of Internet networks on the psychological development of adolescence, the ways of the formation and maturation of the adolescent personality, and the influence of biological and social factors that affect it. opinions about the reasons for the changes are given, there are recommendations for working with teenagers.

Keywords: information culture, Internet, adolescence, family relations, online platforms, education, upbringing.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati 2016-yil 14-sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun ekanida ham ramziy mazmun-mohiyat mujassam. Darhaqiqat, mamlakatimiz aholisining yarmidan ko‘prog‘i yoshlardan iborat ekanligi yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama etuk va barkamol, intellektual salohiyatli, o‘z qat’iy pozitsiyasiga ega, yurtda amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo‘lmagan, maqsadga intiluvchan, serg‘ayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifatida tarbiyalash, mamlakatimizni dunyoning eng rivojlangan davlatlari safidan o‘rin olishning muhim omili ekanini mamlakat rahbari va hukumat yaxshi anglaydi. Prezidentimiz etibor qaratgan yoshlarning ko‘pchiligini o‘smir yoshidagi yoshlar tashkil etadi.

O‘smirlik – bolalikdan kattalikka o‘tish davri bo‘lib, fiziologik va psixologik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi va bu davrda o‘smir tarbiyasiga e’tibor qaratish va bu tarbiya jarayonidagi qiyinchiliklarga yuzaki qaramaslikni taqozo etadi.

Bugungi zamonaviy sharoitlar o‘smirlik yoshida bolaning hayotida va faoliyati ancha o‘zgarishlar, ruhiyatining qayta qurilishi ro‘y beradi. Tengqurlari bilan muomala qilishda yangi shakllari paydo bo‘ladi. O‘spirinning ijtimoiy hayotdagi maqomida

o‘zgarishlar ro‘y beradi, ota-onalar va ustozlar tomonidan unga talablar kuchayadi. Bu yoshda o‘spirinning vaqtinchalik oila va maktabda ruhiy ajralishi sodir boladi. O‘spirinnig shakllanishida ota-onaning ahamiyati pasayadi.

Internet tarmoqlari, ya’ni onlayn platformalar, o‘smirlarning tarbiyasiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu tarmoqlar o‘smirlarga o‘z vaqtlarini, e’tiborlarini, fikrlarini shakllantirishda hayotidagi katta o‘rni egallab bo‘ldi. Bu ta’sir o‘sha tarmoqqa kirgan ma’lumotlar, xabarlar, o‘quv materiallari va alohida axborotlar asosida bo‘ladi. O‘smirlar bu tarmoqlar orqali turli sohalar, masalan, ta’lim, ijod, ijtimoiy aloqa va o‘zini shaxsiy platformalarini hayotini ifodalash uchun foydalanishadi. Shuningdek, bu tarmoqlar o‘smirlarga global ko‘rgazmalar, xalqaro munosabatlarning o‘zgarishi va ko‘p tarmoqli kommunikatsiyalar orqali dunyo bilan bog‘liqlik hissiyatini kengaytirishi mumkin. Bunda albatta ustoz murabbiylardan maslahatlar olish uchun muvaffaqiyatli ta’lim resurslari va platformalari, ommaviy so‘zlash tarmoqlari, maqolalar, videolar ko‘rish yoki audiolarni eshitish uchun saralab o‘rnatilgan muhit juda muhimdir. Shuningdek, ota-ona va o‘qituvchilar internet tarmoqlaridan foydalanib, o‘smirlarning onlayn faoliyatlari va sodda mulohazalari bo‘yicha o‘smirga yordam berishlari, ularning internetni o‘rganish va foydalanish jarayonida o‘zgarishlar haqida kerakli ma’lumotlarni olishi mumkin.

XXI – asr – axborot texnologiyalari yangiliklarini shiddat bilan rivojlanish taraqqiyoti asridir. Bugungi kun taraqqiyotini jahon axborot tarmog‘i-internetsiz tasavvur qilish mushkul.

Internet cheksiz imkoniyatlar eshigini ochdi. Xususan uydan ko‘chaga chiqmay turib internet - global tarmoq orqali dunyo kutubxonalarini bo‘ylab sayr qilib, kurrai zaminning narigi chekkasida joylashgan ta’lim muassasasining masofaviy (virtual) a’zosi bo‘lish, hatto elektron xizmatlarni (matnlarni tarjima qilish, video va audiomahsulotlarni tayyorlab berish, kitob va risolalarni sahifalash va hokazo) shartnoma orqali bajarish, pul ishlab topish mumkin.

Xullas, internetning ijobiy jihatlari bisyor, lekin internet ko‘plab foydali jihatlari bilan birga salbiy oqibatlarini ham namoyon qilmoqda. Aholida ayniqsa yoshlarda axborot iste’moli madaniyatining sustligi, turli xabarlar oqimidan kerakligini ajratib olishda bilim, malaka va ko‘nikmaning etishmasligi ba’zilarning g‘arazli kimsa va oqimlar ta’siriga tushib qolishlariga, internet qaramligi kasalligiga yo‘liqishlariga sabab bo‘lmoqda. Xitoy Xalq Respublikasida internetga qaramlik kasallik sifatida e’tirof etilib, uni davolovchi maxsus shifoxonalar tashkil etilgani so‘zimizning isbotidir.

Umuman, internetga qaramlikning eng og‘ir jihati real olamni, insoniylik burchi va vazifalarini unutishdir. Inson haqiqiy hayotda yashashi, halol mehnat qilishi, ilm olishi, zimmasidagi vazifalarini sidqidildan bajarishi, elu yurtiga fidoyilik bilan xizmat qilishi, atrofdagilarga foyda keltirishi zarur.

Internetda ko‘p vaqtini o‘tkazadigan insonning ruhiyatida mavhumlik va o‘z qobig‘iga o‘ralib olish holati kuzatiladi. Bu esa uni kelajakda “uchinchi kuchlar” tomonidan manqurtlashishi, zombilashtirilishi uchun zamin yaratadi. Bugungi kunda buzg‘unchi guruhlar yoshlar ongiga ta’sir qilishda asosan internetdan foydalanayotganlari bejiz emas.

Internetning yana bir salbiy jihati-kishilardagi xudbinlik, manmanlik, zamonaviy tilda ifoda etganda, egosentrizm illatining kuchayishiga sabab bo‘lishidir.

Bugungi dunyo yoshlari son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Bugun internet madaniyati, virtual

madaniyat, axborot madaniyati, ma’lumotlardan to‘g‘ri foydalanish madaniyati kabi tushunchalar hayotimizdan o‘rin egalladi. Yoshlarda internet olamida o‘z o‘rnini to‘g‘ri belgilash va foydalanuvchilar bilan to‘g‘ri muomala qilish, virtual olamdagi axborotlarni to‘g‘ri tahlil qilish malakasini shakllantirish davr talabidir.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak ertangi kun egalari sanalgan o‘smir yoshlar tarbiyasida internet tarmog‘larini ijobiy tomonlari bilan birga salbiy jihatlari ham borligini unitmaslik kerak. O‘smir yoshlar tafakkurida yot g‘oyalarga qarshi mustahkam imunitetni shakllantirish shu sohada faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassislarining oldida turgan eng asosiy burchlaridan biridir. Shu vazifalarni sobitqadamlik bilan yo‘limizda adashmay mehnat qilish orqali to‘la amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi 14.09.2016 yildagi O‘RQ-406-son qarori. <https://lex.uz/docs/-3026246?ONDATE=26.01.2022>
2. Dilfuza Qarshiboyeva, Критического мышления у подростков, Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 1 (2021): Zamonaviy ta’limda pedagogika va psixologiya fanlari
3. Jumanova, N. (2021). Характеристики пробуждения большой группы детей любовь к литературе. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от [https:// ppmedu. jspi. uz/ index. php /ppmedu/article/view/1366](https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1366)
4. Malikaxon Qodirova, Mashfulotlar va ularning bo‘la idrokini shakllanishiдаги ахамияти, Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 1 (2021):
5. Nishanova. Z.T va boshqalar. “Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya”. -T.;O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2018. 332-bet
6. Obidova, D., & Nasiba, J. Analysis of the activities of health care institutions: prospects for the application of psychological knowledge.
7. Sherboevna, N. J. (2020). The use of integrated technologies in the cultivation of children's speech in preschool education. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(2).
8. www.lex.uz
9. www.Ilm.uz
10. www.Ziyo.net